



MEDIASFERADA TRANSMEDIAVIY STORITELLING HODISASI TAVSIFI

Gulnoza Najmiddinova¹

¹O‘zJOKU katta o‘qituvchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
transmedia, storitelling, transmediaviy storitelling, hikoya olami, media, narrativ.	Ushbu maqolada transmediaviy storitelling tushunchasiga ta’rif berilgan bo‘lib, mazkur hodisaning nazariy asoslari o‘rganilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
трансмедиа, сторителлинг, трансмедийное повествование, мир рассказов, медиа, нарратив.	В данной статье дано определение феномену трансмедийного повествования, изучены теоретические основы данного явления.
KEY WORDS	ABSTRACT
transmedia, storytelling, transmedia storytelling, storyworld, media, narrative.	The article provides a definition of the phenomenon of transmedia narrative. The theoretical foundations of this phenomenon were studied by researcher.

Kirish. Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot tufayli mediasferada kuzatilayotgan global o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularga ta’rif va tavsif berish media tadqiqotlar sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Transmediaviy storitelling – bir hikoyani ilg‘or raqamli texnologiyalar orqali turli platformalarda va turli formatlarda taqdim etish usuli. U auditoriyani syujetga, voqea-hodisaga chuqurroq kirgizish, unda yangi taassurot va tajribani shakllantirishni maqsad qiladi. Dastlab rekreativ sohada vujudga kelgan transmediaviy storitelling hodisasi endilikda marketing vakillari tomonidan ham branding va targ‘ibot instrumenti sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Transmediaviylik bugungi multimedia, immersiv va interaktiv texnologiyalar jadal taraqqiy etayotgan zamon uchun yangi trend emas. Mazkur hodisaning ilmiy-nazariy asoslari H.Djenkins, K.Moloni, A.Filips, M.Kinder, T.Makferson, D.Y.Chjin, O.Molchanova, N.Ponomaryov, S.Shakirov kabilarning izlanishlarida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, tadqiqotchi O. Molchanova transmedia va

transmediaviylikka ta’rif berar ekan, bu “keng ma’noda – insonlar obrazlarga aylanadigan, to‘qima personajlar esa, aksincha, moddiylashadigan raqamli ijtimoiy tuzilma” ekanligini, unda real hayotiy voqealar yangiliklar uchun aql bovar qilmas ssenariylarga aylanib, fantaziyalar esa ishonch qozonishini ta’kidlaydi [3].

Tadqiqot metodologiya. Transmediaviy storitelling hodisasining nazariy-metodologik asoslari narrativ tadqiq negizida shakllanganligini ta’kidlash lozim. Jumladan, bu borada amerikalik narratolog D. Hermannning izlanishlari alohida e’tiborga loyiq. U narrativni kontekstga bog‘liq amaliyot sifatida talqin qiladi. Herman o‘z tadqiqotlarida “narrativ matn” (hikoya) atamasi o‘rniga “hikoya olami” (storyworld) birikmasini qo‘llaydi [4]. U “Narrativning tayanch unsurlari” (Basic Elements of Narrative) (2009), “Storitelling va tafakkur haqidagi fanlar” (Storytelling and The Sciences of Mind) (2013) kitoblarida narrativ tarkibi nafaqat hikoya etilayotgan matn, balki vaziyatlar, voqea-hodisalarning vaqt kesimidagi o‘zgarishi, shu voqea-hodisalarga muayyan



mazmun bag'ishlaydigan ichki kontekst, shuningdek, hikoya etish jarayonining konteksti (qanday vosita orqali kimga va qanday kontekstda hikoya etilayotganligi, shart-sharoiti) va uning qanday qabul qilinishini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Natijalar. Hermanning izlanishlari asosida hikoya olamining bir asar chegarasidan chiqishi mumkinligini e'tirof etish mumkin. Jumladan, atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida asar so'ngida Otabekning o'g'li Yodgor taqdiri haqida qisqacha ma'lumot beriladi: “Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk tirigi ma'lum emas, deydilar” [2]. Yodgorbekning hayoti, uning narrativi, mohiyatan, asar syujetining davomi. Muallif romanni Otabekning Avliyoota ostonalaridagi Chor Rossiyasi qo'shinlariga qarshi jangda halok bo'lishi bilan yakunlaydi. Ammo “Yozg'uchidan” izohi ostida berilgan yuqoridagi ma'lumot o'quvchiga aslida “O'tkan kunlar” narrativi davom etayotganligini bildiradi. Garchi Yodgorbek, uning biri – ishchi, ikkinchisi esa Farg'ona bosmachilariga qo'shilib ketgan ikki o'g'lining hayoti tafsilotlari haqida o'quvchi faqat taxmin qila olsa-da.

Narrativning bir asar chegarasidan tashqariga chiqishi mumkinligini isbotlovchi ko'plab misollarni keltirish mumkin. Jumladan, mashhur ingliz yozuvchisi Dj. Tolkinning “Uzuklar hukmdori”, Dj. K. Roulingning “Garri Potter” turkumiga kiruvchi sarguzasht romanlarida asar voqealarini asoslovchi ko'plab syujet chiziqlari

mavjud. Masalan, Rouling asarlarida Albus Dambldor, Gellert Grindevald, Voldemort, Severus Sneyp, Djeyms va Lili Potterlar haqida romanda kam to'xtalib o'tilgan. Vaholanki, aynan ular ishtirokisiz asar fabulasi mazmunga ega emas. Mazkur qahramonlar narrativi o'quvchida alohida qiziqish uyg'otadi va, garchi potterianada bu narrativlar deyarli berilmagan bo'lsa-da, ular kitobxonlar uchun o'ziga xos “langar”, “ilmoq” vazifasini bajaradi. Ana shu “ilmoq”lar hikoya olamini yangidan yangi tafsilotlar bilan boyitadi. Jumladan, Roulingning “Garri Potter” turkum romanlaridan so'ng ommaga muallifning “Fantastik jonivorlar” (kitob va film) hamda “La'natlangan farzand” (pyesa) asarlari taqdim etildi va ular bir romanlar turkumi doirasidan anchayin keng xayoliy olamni shakllantirdi. Narrativning sotsiologik ahamiyati uning auditoriya xayolotida ana shunday hikoya olami (storyworld) ni yarata olishi bilan izohlanadi. Mazkur olamni tafsilotlar bilan boyitish maqsadida asarning prikveli¹ (prequel) hamda sikveli² (sequel), bundan tashqari, spin-off³ (spin-off) kabilar ustida ish olib boriladi. E'tiborlisi, bu olam faqat yozuvchi tomonidan shakllantirilmaydi. Hikoya olami (storyworld) turli media platformalarida shakllanishi mumkin. Bunda biz narrativning transmediaviy kommunikatsiyaga asos bo'luvchi kuch sifatidagi ahamiyatini e'tirof etamiz.

Transmediaviy storitelling va narrativlar zamonaviy jurnalistikada ham namoyon bo'lmoqda. Jumladan, tadqiqotchi Agrikova, transmediaviy narratsiya (storitelling)da mazmun verbal va noverbal kommunikatsiya vositalari hamda turli mediaformatlarda bayon etilishini va bunda narrativlar bir-birini takrorlamay, aksincha, to'ldirishi, natijada yaxlit informatsion makonni shakllantirishini qayd etadi [1]. Amerikalik tadqiqotchilar H. Djenkins va K. Moloni



transmediaviy narratsiya texnikasi jurnalistikada nafaqat katta auditoriyani qisqa muddatda qamrab olish, balki uni materialga jalb etish imkonini berishini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, bir-birini to'ldiruvchi narrativlarning turli media platformalarida taqdim etilishi, ularning havolalar, ijtimoiy tarmoqlar, turli interaktiv vositalar orqali o'zaro bog'lanishi boshi va yakuni bo'lmagan o'ziga xos axborot makonini shakllantiradi. Biz ta'rifda “boshi va yakuni bo'lmagan”, degan jumlaning bejiz ishlatmadik. Zero, transmediaviy narrativ makonga, u xoh jurnalistik faoliyat mahsuli bo'lsin, xoh badiiy to'qima, auditoriya turli nuqtalardan, chiziqsiz tarzda kirib boradi, “sho'ng'iydi”. Bunda muallif yoki ijodiy guruh o'z oldiga yakunlangan voqea yoki syujetni bayon etishni emas, balki auditoriyani mavzu doirasida yanada ko'proq axborot, tafsilotlar izlashga chorlash, keyin (kelgusi sahifa, qism, bo'limda) nima bo'lishiga qiziqtirish bilan bir qatorda, unda kontentni muhokama qilishga, taassurotlari bilan o'rtoqlashishga, hamfikrlar topishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish maqsadini qo'yadi.

Xulosa. Internet va veb-texnologiyalar taraqqiyoti tufayli bugun auditoriyaning o'zi hikoya olamini oziqlantiruvchi asosiy manbaga aylandi. Bu qanday ro'y berdi? Yuqorida ta'kidlaganimizdek, narrativning transmediaviyligi, bir media, bir syujet chegarasidan tashqariga chiqishi o'ziga xos “hikoya olami”ni shakllantiradi. Ammo bu paraolamga kirgan auditoriya uni muhokama qilish, hamfikir, hammaslak insonlarni qidirish maqsadida boshqa bir virtual olamni, hamjamiyatni yaratadi. Bunga yaqqol misol fandom⁴ hodisasidir.

Mohiyatan, fandom – reallik va “hikoya olami” o'rtasidagi ko'prik, real auditoriya fiktiv “hikoya olami”ni muhokama qilishi, o'zaro fikr va taassurot almashishi uchun xizmat qiluvchi maydoncha, o'z-o'zini moderatsiya qiluvchi, tahrirlovchi, to'ldiruvchi, rivojlanib boruvchi virtual ijtimoiy tuzilma. Odatda muayyan kontent, mashhur shaxs (selebri), jamoa kabilarning muxlislari tomonidan shakllantiriladi va ular o'zlariga maxsus nom ham qo'yishadi. Masalan, “Garri Potter” fanatlari o'zlarini potterboshlar (potterhead) yoki potteromanlar, Dj. Tolkin asarlari muxlislari – tolkinistlar, “Sherlok” teleseriali va mashhur izquvar fanatlari – sherlokomanlar, anime va manga ixlosmandlari – otakular bo'lgani singari.

Izohlar:

¹Prikvel (*prequel*) – bir hikoya olami doirasida yakunlangan asosiy asar syujetiga qadar bo'lgan voqea-hodisalar bayon etilgan asar. Masalan, Dj. Roulingning “Fantastik jonivorlar” turkum romanlari “Garri Potter” turkumidagi 8 ta kitobning prikvelidir. Shuningdek, Dj. Tolkinning “Xobbit” trilogiyasi ham yozuvchining boshqa bir roman-uchligi “Uzuklar hukmdori”ning prikveli sanaladi.

²Sikvel (*sequel*) – bir hikoya olami doirasida yakunlangan asosiy asar syujetidan keyingi voqea-hodisalar bayon etilgan asar. Masalan, unda asosiy asar qahramonlarining keyingi yoki farzandlari taqdiri tasvirlanishi mumkin. Dj. Roulingning “Garri Potter” turkumidagi 8 ta kitobi sikveli – “La'natlangan farzand” pyesasi.

³Spin-off (*spin-off*) – bir hikoya olami doirasida asosiy asar syujeti voqealariga parallel yoki ularni to'ldiruvchi, asoslovchi, tushuntiruvchi asar. Masalan, E. Remarkning “Qaytish” romani muallifning “G'arbiy frontda o'zgarishlarsiz” kitobi spin-offidir.

⁴Fandom (*fandom*) – odatda norasmiy submadaniy hamjamiyat, biror mediahodisa (kontent, shaxs va h.k.) muxlislari, fanatlari tomonidan shakllantiriladi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Агрикова Е. Формирование навыков трансмедийного повествования у студентов – будущих журналистов средствами иностранного языка // Общество: социология, психология, педагогика. 2016. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-navykov-transmediynogo-povestvovaniya-u-studentov-buduschih-zhurnalistov-sredstvami-inostrannogo-yazyka> (мурожат санаси: 27.02.2022).

2. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т. Шарқ, 2004, – Б.383.

3. Молчанова О. Трансмедиамышление как социальный феномен в условиях медиаконвергенции // Logos et Praxis. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/transmediamyshleniekak-sotsialnyy-fenomen-v-usloviyah-mediakonvergensii> (мурожат санаси: 27.02.2022).

4. Татару Л.В. Когнитивная логика нарратива // Вестник РГГУ. Серия: Литературоведение. Языкознание. Культурология. 2008. №9. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnaya-logika-narrativa-1> (мурожат санаси: 03.12.2021).